



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



ehtiyojini kuchaytiradi, adabiy merosni amaliy hayot bilan bog'lash imkonini yaratadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Behbudiy ijodini o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash, talabalarga uning asarlarini an'anaviy o'qitish metodlaridan farqli o'laroq, yanada samarali, interaktiv va qiziqarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalaridan foydalanish mavzuning o'ziga xos xususiyatlari, real vaqt rejimida muhokama qilish imkoniyatlari, talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi va ularda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent: Xazina, 1994.
2. Alimova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. Toshkent: Akademiya, 1999.
3. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi. "O'zbek adabiyoti tarixi" fanining o'quv dasturi. Toshkent – 2023.
4. Dolimov U. Turkistonda jadid maktablari. Toshkent: Universitet, 2006.
5. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-462-son, 27.12.2024-y
7. Qosimov B. Behbudiy va jadidchilik. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1990-yil 19, 26-yanvar.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/ITDX2482

ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI

Musurmonkulova Oysulov Yulbekovna

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi*

Annotatsiya: Maqolada adabiy ta'limda o'quvchilarning lateral-kreativ yondashuv asosida adabiy-tahlil kompetensiyalarni shakllantirish, hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga oid metodik usullar yangi ijtimoiy-madaniy talablarga muvofiq ko'rib chiqilgan. Kuzatilgan adabiy tahlil o'rinlarda o'quvchilar ongining tasvirlari, maxsus ideal shakllanishlar, psixologik kechinmalar va hayoliy obrazga maqsadlarini singdirish yoritilgan. Shuningdek, lateral fikrlashni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlar va bosqichlari tavsiflangan. Adabiy ta'lim jarayonlarida lateral-kreativ savol va topshiriqlar bilan ishlash yuzasidan ayrim tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, bilim, ko'nikma, ijodiy, lateral, tafakkur, usul, nostandart, samaradorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются методические подходы к формированию литературно-аналитических компетенций и жизненных навыков учащихся на основе латерально-креативного подхода в литературном образовании в соответствии с новыми социокультурными требованиями. Обсуждаются примеры литературного



анализа, в которых отражаются ментальные образы учащихся, формирование идеализированных конструкций, психологические переживания и интеграция воображаемых целей в символические образы. Также описаны отличительные особенности и этапы развития латерального мышления. В статье представлены практические рекомендации по использованию латерально-креативных вопросов и заданий в процессе литературного обучения.

Ключевые слова: креативность, знание, навык, творчество, латеральное мышление, метод, нестандартность, эффективность.

Annotation: This article examines methodological strategies for developing students' literary-analytical competencies and life skills in literary education through a lateral-creative approach, in alignment with emerging socio-cultural demands. It discusses instances of literary analysis that reflect students' mental imagery, the formation of idealized constructs, psychological experiences, and the integration of imaginative goals into symbolic characters. The article also outlines the distinctive features and stages of fostering lateral thinking. Additionally, it offers practical recommendations for applying lateral-creative questions and tasks in the context of literary instruction.

Keywords: creativity, knowledge, skill, creativity, lateral thinking, method, non-standard, effectiveness.

Xalqaro maydonda sodir bo'layotgan milliy-ma'naviy epifaniya¹⁹² tufayli azaliy ma'naviy qadriyatlariga e'tiborni kuchaytirish, ta'limni takomillashtirish, yoshlarni turli tahdidlardan asrash kabi yangi talablar belgilandi.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans bunyodkorlarining dunyoqarashi va salohiyatini oshirishga oid qarorlar¹⁹³ amaliyotga joriy etildi, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvorligi oshdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'yimoqda. Biz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldimizga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ydik"¹⁹⁴.

Binobarin, ongli tafakkur jamiyat rivojiga daxldor. Adabiy ta'limning ilmiy-metodik konsepsiyasi ijtimoiy va axloqiy yo'nalishda ko'zlangan emotsional tafakkurni rivojlantirishni tavsiflaydi. Har qanday inson "hayotdan topmagan odamini adabiyotdan topadi"¹⁹⁵. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ma'naviyatini rivojlantirish yuzasidan yangi paradigmatic asoslarini ishlab chiqishda lateral-kreativ yondashuv muhim ahamiyatga ega. Lateral-kreativ yondashuv madaniy va estetik mazmunning uzatilishi, qabul qilinishi va samarali o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lgan yagona estetik muammoning mohiyatiga ko'ra aktuallashuvi, izolyatsiyasi va ko'p qirrali konseptual

¹⁹² *yunoncha* so'z. In'ikos. Kashf. Sezilar-sezilmas sur'at, qisqa chaqin, "ko'rinish".

¹⁹³ O'z. Res. Prezidentining 17. 09. 2021-y. 572-son. "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 27.08.2024-y. 157-son. "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi. Hukumat qarorlari.

¹⁹⁴ <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

¹⁹⁵ Хаққул И. Мушоҳада ёғдуси. – Тошкент: Фан нашриёти, 2009. – 88-б.



rivojlanishini ta'minlaydi. Adabiy ta'lim jarayonlarida qolipdan chiqish yo'llarini ko'rsatadi.

Bu borada qilinishi kerak bo'lgan metodik ishlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- asarni idrok etishida qahramonlar xarakterini o'quvchilarning xarakteriga ta'sirini aniqlash va xarakter oqibatlarini nostandart baholash;
- adabiy
- asarlarda muallif g'oyalarini hayoliy buzish asosida o'quvchilarining kreativ g'oyalarini yaratishga o'rgatish;
- o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishda o'quvchilar reaksiyalariga mos keladigan tahlil qilish usullar ustida ishlash kabi.

O'qituvchi bu muammolarni hal etishda ichki psixologik, ong faktlarining intuitiv tajribasi o'quvchi ongining lateral qirralarini anglatish bilan tavsiflanadi. Uilyam Empsonning fikricha, tahlilning maqsadi "poetik effektning harakat usullari"ni ko'rsatishdir¹⁹⁶. O'quvchilar jamoasida o'qish jarayoni ularda hayoliy aks ettiruvchi fikrlar to'qnashuvi nimalarnidir kashf ettiradi.

Milliy o'quv dasturida belgilangan standartga muvofiq "asarning badiiy xususiyatlarini (asarda qo'llanilgan badiiy vositalarni) tahlil qiladi, ularning o'quvchiga ta'siri haqida fikr bildiradi"¹⁹⁷. O'quvchilar asar qahramoni muammolarini qanchalik tushunishini o'z ustida ishlashi bilan qiyoslash mumkin. Muhim jihati, sara fikrlar aytish, tuzatish, sintez qilish kuzatiladi. O'quvchilar fikrlarida o'z-o'zidan shaxsiy maqsadlari yotadi.

Adabiyot yashirin ma'nolar makoni sifatida o'ziga xos tushuntirishni ham taqozo etadi. Badiiy asarlar insonlardagi ayrim o'ziga xos sifatlarni qulog'iga aytishga qodir. Muallif asardagi kechayotgan voqeani tavsiflashda so'zlar va iboralarni kitobxon o'zlarini his qilishlariga urg'u beradi, bo'rtiradi. Shu bois, o'qituvchilar umumiy xulosalar, qarorlarda o'quvchilarga uqtirmaslik kerak. Adabiy asarlarning badiiy mazmuni o'zgarish xususiyatiga ega. Adabiy ta'lim jarayonlaridagi tahlillarda bu qalqib, hayollarini aniqlikka olib chiqadi.

Adabiy ta'lim jarayonlaridagi tushunish, tushuntirish yuzasidan 5-sinf :rasida ayrim tahlil o'rinlari kuzatsak: 5-sinf adabiyot darsligi¹⁹⁸da Ezop, I. A. Krilov, Muxtor Xudoyqulovning masallari berilgan. Jumladan: Ezopning "Bo'ri bilan Laylak" masali.

"Bo'riining bo'g'ziga suyak tiqilib qoldi-yu, joni ko'ziga ko'rinib, yordam istab yugurgilabdi. Baxtini qarangki laylakka duch keldi: "Suyakni chiqarib tashlasang, mukofotlayman", -deya va'dalar berib yordam so'rabdi. Laylak tumshug'i-yu boshini bo'riining bo'g'zigacha tiqib, arang suyakni chiqarib oldida, va'da qilingan

¹⁹⁶ Childs P., Fowler R. The Routledge Dictionary of Literary Terms. Rev. and enl. ed. 1987. – P 7.

¹⁹⁷ Mirzayeva Z., Jalilov K. O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Academ Space, 2024. – 42-b.

¹⁹⁸ Yo'ldoshev Q. va boshqa. Adabiyot. 5-sinf/Darslik (2-qism). – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 128-b.



mukofotni talab qildi. Bo'ri bunga javoban dedi: ha azizam, bo'rining og'zidan boshing omon chiqqani kammi, yana mukofot deysan-a?!".

Matnda muallif tushuntirishni "yana mukofot deysan-a" so'zida jamlaydi. Tushunishini o'qituvchi matn o'qilmasdan oldin mavzuga olib kirishdan ko'maklashib boradi.

- Bo'rining terisi, tirnog'i nega sotiladi?
- Qora laylaklar ko'rganmisiz

Bo'ri, laylak haqidagi o'zaro fikr-mulohazalar o'quvchilardagi kognitiv-asoslangan ta'riflar va ma'lumotlar hayoliy gavdalantiradi. O'quvchilardagi savol yuzasidan avval va hozir eshitganlari bo'ri haqidagi tajribalarni aniqlashtiradi. Ularga yaxshilik va yomonlikning tagma'nolarini, ramziy ifodalarini ta'kidlash ularning sezgi-tuyg'ularida anglash, barcha mantiqiy shakllari va mexanizmlarisiz to'g'ridan to'g'ri yangi g'oyalar, ko'nikmalar vujudga kelishiga imkon yaratadi.

O'qituvchi guruhlarda ishlashda belgilarda ishlashi mumkin. Har bir guruh uchun alohida belgilar: "dinamik belgi", "tekis belgi", "statik belgi", "yumaloq belgi", "ramziy belgi" asosida ko'rib chiqish¹⁹⁹ ranglarni moslash topshirig'i beriladi. Ranglar tanlangach, guruhlar shakllantiriladi. Oq rangni tanlagan guruh o'zi moslashtirgan belgi ostida ishlaydi. (qolgan guruhlarda ham o'z rang va belgisi bor) Guruhlar dinamik belgida bo'rining qaltis vaziyatlarda o'zgarishi, tekis belgida befarqlik harakatlari, yumaloq belgida individual belgisi, statik belgida aniq sifatini asoslash o'quvchilar ixtiyorida bajariladi.

Guruh uchun savollar:

- Asarda musibat bilan, baxtning birga kelishiga Sizning fikringiz. Aslida shundaymi yoki muallif nuqtayi nazarimi?
- Laylakka aytilgan ("bo'rining og'zidan boshing omon chiqqani kammi") javobga ijobiy munosabat bildiring.
- Laylak shu vaziyatni oldindan bilganida, u shunday harakat qilarmidi?
- Va'da va ishonch o'rtasidagi qanday umumiylik bor kabi.

O'qituvchi savol berishdan oldin :m o'quvchilarga nima haqida gapirishini ta'kidlash muhimdir. Chunki har qanday savollar nimadir berishga asoslanadi. Aks holda o'quvchilarning oldi-qochdi munosabatlari vaqtning samarasizligini keltirib chiqaradi. Yondashuv asosida lateral fikrlash tushuntirilsa, shunga mos so'zlashadi. O'qituvchilar adabiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishda o'quvchi tajribasiga tayanish lozim. Bo'rining salbiy munosabatiga ijobiy fikr bildirish bu yoshdagi o'quvchilarni o'ylantirishi tabiiy. Bunda matn g'oyasini tushunishi, falsafalash usullari chetdan o'ylab ko'rishda murakkablik mavjud. O'qituvchining ko'magi shundaki, qayta o'qitish, bo'rining javobida kayfiyatga bog'liqlik yoki o'zining sifati, mantiqiy bog'liqlik, ramziy belgilar va hayotiy tajribalarni eslatishdan iborat.

Tadqiqotchi Joy Pol Guilford ham ravonlikda ko'p sonli g'oyalar mavjudligini izohlaydi, Ya'ni, qoliplardan, ma'lum chegaralardan tashqariga

¹⁹⁹ [Literary Analysis.pdf](#)



chiqish – stereotiplarga ergashmaslik va muammolarni hal qilishda turli bir-biriga qarama-qarshi fikrlardan foydalanish uchun o'quvchining ma'lumotlarga nisbatan "ochiq bo'lishi"ga chaqiradi.

Adabiy ta'lim jarayonlarida o'quvchilar ba'zan o'ylashni istashmaydi. Ayniqsa, tezkor vaziyatlar "ongsizligi"da, umume'tirof etilgan standartlarni ya'ni "bo'ring vazifasi shu", hamma masal shunday va shunday bo'ladi, "laylak jabrdiyda" boshqacha bo'lishi mumkin emas qabilida sa'y-harakatlari kuzatiladi. Bunday o'quvchilarda ijodkorlik yetishmaydi. O'qituvchining mahorati shunda bilinadi. Bunday holatlarda o'quvchining shaxsiy nuqtayi nazariga urg'u berishi, individual fikrning ijtimoiy fikr bilan uzviy bog'liqlik o'rinlarini izohlash va lateral fikrlashni shakllantirish ustida ishlash lozim. Jumladan, lateral-kreativ fikrlashga yo'naltirishda bo'ridan intervyu olish; laylakning tovushsiz tillashishini o'rganish, "Agar..." ssenriysi (What if...?), masal g'oyasini bir gapda ifodalash, asar g'oyasi sizga qanday rejalar berdi, laylak va turna farqi asosida komiks tayyorlash asosida motivatsiyasini oshirish lozim. Bunday o'z-o'zidan sekin kuchaytiruvchi reaksiyalar ularni mavzudan tashqariga olib chiqadi va o'z olamida ma'lum estetik prinsip va talabda o'ylashga majbur qiladi. Adabiy tahlil muallifning g'oya va niyatini ifodalash yo'llarini aniqlash maqsadida muayyan harakatlarni bajarishdir.

O'quvchilarni to'g'ri yo'naltirishda masalni hayotga bog'lash, yangi qirralar haqida o'ylash, o'quvchiga qanday nohaqlik bo'lgan, qanday hal etilgan, ya'ni laylakka qilingan nohaqlikka ijobiy munosabat bildirish hammaning qo'lidan kelmasligi haqida hayotiy asoslar keltirish maqsadga muvofiq.

Binobarin, o'quvchilarda yangi g'oyalar kashf etish savol va topshiriqlarga yuklangan shakl va daraja hissidan paydo bo'ladi. X.G. Gadamer insonning hayotdagi o'rni haqida "asosiy falsafiy savolga javob berish, ilm-fanning taraqqiyoti davrida insonning o'z-o'zini anglashi sifatida harakat qilishi kerak"²⁰⁰ deya ta'kidlaydi. Metodikaning natijaviyligi ehtiyojga asoslanishi to'g'rilik va xolislikni ta'minlash lozim. "Fanning vazifasi savolni to'g'ri shakllantirishdan iborat. Ammo jaholatdan bilimga o'tish usullarini o'rganmasdan, berilgan savol prinsipial jihatdan javobga olib kelishi mumkinligini aniqlamasdan turib, savolning qaysi formulasi to'g'ri va qaysi biri emasligini aniqlash mumkin emas. Binobarin, uslubiy savollarning butun rasi, savoldan javobgacha bo'lgan yo'l bilan bog'liq bo'lgan hamma narsa (lekin javobning o'zi bilan emas) fanga tegishli"²⁰¹.

Lateral-kreativ yondashuv asosida adabiy tahlil jarayonida, asosan, o'qituvchi o'quvchining samaraliroq ishlashga yordam berish va fikrlarini muvofiqlashtirish, motivatsiyasini oshirish, bir vaqtning o'zida ko'p vazifa elementlarini bir tizimga tushirish, eng muhimini topishga yo'naltirish, kelgusida har qanday muammoning yechimi borligiga ishontirish zarur.

²⁰⁰ Гадамер Х.Г. Истина и метод. – М.: Прогресс, 1988. – 6 с.

²⁰¹ Лотман. Й.М. Анализ поэтического текста : Структура стиха. – Л. : Просвещение, 1972. – 4 с.



Shuningdek, darslikdagi lirik masal tahlilga e'tibor bering:

MATN:

“Bo'ri bilan qo'zichoq”

Daraxtning bo'shini qurt yeydi :m,
Tarixda misollar juda ko'p bunga.
Tarix to'g'risida qolaylik-da jim,
Bir ertak so'ylaylik, quloq ber shunga.
Yozning issiq bir kunida
Qo'zi bordi suv ichgali.
O'z joniga qasd qilgandan
Xabari yo'q uning hali.
O'sha joyda och bo'rining
Yurganini bilmaydi u.
Shu chog' birdan ro'paradan
Bo'ri chiqib qoladi-ku!

O'z ishiga oz bo'lsa ham
Qonuniy tus bermoq bo'lib,
Qichqiradi qo'zichoqqa
Ikki ko'zi qonga to'lib:
“Sen iflosni men bilaman,
Tumshug'ingni suvga tiqib
Toza suvni bulg'atasan!
Suv yuziga qolar chiqib
Tagidagi hamma loylar.
Toza bir suv icholmayman
Bu ariqdan yillar, oylar

Mazkur 5-sinf uchun tanlangan I. A. Krilovning masali o'quvchilar yoshiga mos kelgan. Lirik masal o'qilishi tekis, sodda so'zlar o'z-o'zidan xotirada saqlashning ham tizimini shakllantiradi. O'qish jarayoni nasrga nisbatan soddaroq shaklda voqealar o'quvchilarda oldindan sezuvchanligini oshiradi. “Inson tushunarli voqelikni ketma-ket idrok etgani uchun uni ketma-ket hikoya qiladi”²⁰². Muallif fikrini ilg'ash, personaj nutqini tahlil qilishda biroz yumshoq tarzda kechadi. Topshiriqlar ustida ishlashda o'qituvchi ba'zan o'zlariga takror o'qitish maqsadga muvofiq. “She'r ma'lum bo'laklarga bo'lingan bo'lib, bu bo'laklar (oldinma-ketin) bab-baravar vaqtda o'qiladigan bo'lishi lozim”²⁰³. Bo'rining qo'zichoqqa qo'ygan qator ayblar asossizligi haqida o'ylamay, o'quvchilar bo'rini yovuzlik ramzi sifatida baholaydi, tezkor xulosalar bildirishadi.

“Yozning issiq bir kunida
Qo'zi bordi suv ichgali.
O'z joniga qasd qilgandan
Xabari yo'q uning hali”.

She'rdagi tasvirlar qahramon sifatlarida ochib berilgan. Qo'zining yumshoq fe'li(belgi) o'quvchi ongda “ahvoli voy”ligini anglatadi.

She'riy matnda yashirin ishoralar, “qonuniy tus berish” ta'rifi siyosatga nisbatan, “o'z joniga qasd qilgandan”, “tonmoq shunchalik osonmi?” kabi so'zlarda o'quvchining e'tiborini ushlab turish, muhim ma'nolarni anglatish, hayotiy muammolar sirasida (ota-onasi, o'z jigarlaridan tonayotganlar) yechimlar ustida ishlash kerak.

Xususan, “6 – 3 – 5 texnikasi”²⁰⁴.

²⁰² Alexander J.F. A. Potebnja's Psycholinguistic Theory of Literature: A Metacritical Inquiry. – United States of America: Harvard University Press. 1984. – 11 p.

²⁰³https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/09/NamDU-ARM-15042-adabiyot_oqitish_metodikas.pdf

²⁰⁴ 1968-yilda nemis professori Bernd Rorbax tomonidan fikrlash uchun qulayligini ta'kidlagan.



Bunda, 6 kishili guruhga “daraxtning bo’shini qurt yeydi :m”, “o’z joniga qasd qilgandan” “tonmoq shunchalik osonmi?” kabi kartochkalari tarqatiladi. O’quvchilar shu so’zlar asosida mantiqqa mos bo’lmagan, tanqidiy qarashlarga asoslanmagan yangi, lateral-kreativ g’oyalar shaklidagi 3 ta fikrni 5 daqiqa ichida aytish kerak. Qo’llanilish tartibi:

1. 6 o’quvchi 3 ta fikr aytishga vaqt belgilanadi.
2. Muddatda to’xtatilib, fikrlar o’zaro almashtiriladi.
3. Ular o’qib yana qo’shimcha qilishi mumkin.
4. Jami o’quvchilar qarori asosida 3 ta fikr variantni tanlab olinadi.

Maqsadni katta belgilash, fikrlarini ham noodatiy umumlashtirishga yo’naltiradi. Professor Q. Yo’ldoshev mayin isyon ohanglari, erk va g’urur ohanglari, parda ortidagi tuyg’ular haqida so’zlarkan, ijodkorlarning nozik tuyg’ulari haqida “Millat hayotidagi eng kichik o’zgarishni ham tuyishni isbotlab bo’lmaydi, bu ruhiyat bilan bog’liq” deya izohlaydi²⁰⁵.

Haqiqatan ham, o’quvchilar topshiriqni bajarishida ustoz katta o’zgarish kutmaydi. Ularni ijodiy fikrlashga o’rgatishda bilim, hissiyot, zehn, vizuallik, kinestetik qobiliyatlariga imkon yaratsa, o’quvchi nuqtayi nazari tushunishga ko’chadi. Bir guruhda aniqlanmay turgan ijodiy ish ikkinchi guruhda nostandart kreativ holati aql bilan o’ylanadi. Mantiqsiz o’ylash boshida birmuncha qiyinchilik tug’dirsa-da takror qo’llash natijasida o’quvchilar o’rganadi. “Daraxtning bo’shini qurt yeydi m” deganda bilimsizlik ishonchsizlikni, ishonchsizlik esa sargardonlikni yuzaga kelishini tushunishi muhimdir. Ko’rinadiki, o’quvchilar tajribasiga tayangan, mantiqsiz belgining ham ma’lum qonuniyat asosida rishtalari mavjud. O’zaro fikrlarining ustidagi sintezlash-tahlillar ham o’quvchilar tafakkuri uchun xizmat qiladi.

O’quvchilar mulohazalari asosidagi “Laylak har qanday holatda ham yordam berishi to’g’rimi?”, “Qo’zi bu holatga tayyor bo’lish uchun qanday ko’nikmaga ega bo’lishi kerak?”, “Qo’zi xavfni oldindan qanday sezish mumkin?” savollariga javoblar, nuqtayi nazarlar, noodatiy fikrlar o’quvchilar maqsadini o’zgartiradi. Shu kabi, Muxtor Xudoyqulovning “Yo’lbars bilan Mosh” masalida “Betayin orzu ham boshga bir balo” so’zi o’quvchilarning yoshlikdan bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini oshirish, o’z orzulari haqida o’ylab ko’rishga, kichik rejalar tuzishiga xizmat qiladi.

Darslikdagi Ezop, I. A. Krilov, Muxtor Xudoyqulovning masallaridagi muammolar ustida ishlashda o’quvchilarning his-tuyg’ularini aql bilan moslashtirish, insoniylik fazilatlarini anglatish va hayotda buni g’amxo’rlik ko’nikmalariga aylantirolsagina adabiy ta’lim maqsadiga erishadi. Lateral-kreativ yondashuv asosida qilingan adabiy tahlillar asosan, aqliy-emotsional fikrlash, ular orasidagi bog’lanishni topish, ijodiy yondashish demakdir. Ustozlar mahoratning kuchi – tahlil, qayta ishlab chiqish asosida o’z ehtiyojlari uchun

²⁰⁵ Ёўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 131-б.



samarali qo'llashga yo'naltirish, ya'ni ezgulik uchquni o'quvchi qalbiga ko'chira olishidadir.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bunday yondashuvlar har bir personajning ichki xarakterini tushunish va shubhali o'rinlarga e'tibor qaratish, har qanday yomonlikning sabab-oqibatlarini yuzasidan yaxshi tomonini o'ylashga o'rgatadi. Hodisalar rivojini o'zgartirish orqali ongida yangi fikrlar paydo qilishga erishiladi. Asardagi konflikt haqida fikrlarini ochiqlaydi, qahramonning ijobiy tomonlari haqida o'ylash – o'z muammolarga ijobiy munosabat ruhini beradi, media va texnologiyalar muhitida turli axborot manbalarini to'g'ri idrok qilishni o'rganadi, shukronalikni anglatadi.

Adabiy asarning badiiy mazmunini anglash ma'lum adabiy jarayonda sayqal topadi. Zero, bugungi o'zgarishlar zahirida lateral qarashlar, nostandart fikrlar, qulayliklar izlash, innovatsion yondashish, moslashtirish asosida yangiliklar, ixtirolar kashf etilyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17. 09. 2021-y. 572-son. "Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 27.08.2024-y. 157-son. "Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi. Hukumat qarorlari.
2. Ҳаққул И. Мушоҳада ёғдуси. – Т.: Фан нашриёти, 2009. – 340-б.
3. Ўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Т.: Ф. Ғулом ном.нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 459-б.
4. Childs P., Fowler R. The Routledge Dictionary of Literary Terms. Rev. and enl. ed. – 1987.
5. Yo'ldoshev Q. va boshqa. Adabiyot. 5-sinf/Darslik. (2-qism) – T.: Novda Edutainment, 2024. – 128-b.
6. Гадамер Х.Г. Истина и метод. – М.: Прогресс, 1988. – 364 с.
7. Лотман Ё.М. Анализ поэтического текста: Структура стиха. – Л.: Просвещение, 1972. – 274 с.
8. Alexander J.F. A. Potebnja's Psycholinguistic Theory of Literature: A Metacritical Inquiry. – United States of America: Harvard University Press. 1984. – 90-p.
9. Mirzayeva Z., Jalilov K. O'zbek adabiyot o'qitish metodikasi. T.: Academ Space, 2024. 295-bet.
10. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2025/01/09/NamDU-ARM-15042-adabiyot_oqitish_metodikas.pdf
11. [Literary Analysis.pdf](#)



<i>NUTQINI BAHOLASH PEDAGOGIK-METODIK MUAMMO SIFATIDA</i>	
<i>Ermatova Durdona Zafarjon qizi. INDUCTIVE AND DEDUCTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A FOREIGN LANGUAGE: A COMPARATIVE PEDAGOGICAL ANALYSIS</i>	797
<i>Raxmatullayeva Ruxshona Sherzod Qizi. O'ZBEK MILLIY TAOMLARI NOMLARINING SHEVALARDAGI UMUMIY VA FARQLI JIHATLARI</i>	800
<i>Xudayberdiyeva Orifaxon Rustamjon qizi. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LEKSIKA TUSHUNCHASI</i>	803
VII SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	
<i>Р.Нуёзметова. БАДИЙ АСАРДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ВА ҚАҲРАМОНЛАР ТУЙҒУЛАРИ ИФОДАЛАНИШИНИ ЎРГАНИШ</i>	809
<i>Р.Нуёзметова. O'ZBEK ADABIY TA'LIMIDA XORIJIY METODLARDAN FOYDALANISH METODIKASI</i>	813
<i>Исманова Акибатхан Алимжановна. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙНИНГ “ЎТКАН КУНЛАР” ВА ТЎЛАГАН ҚОСИМБЭКОВНИНГ “СИНГАН ҚИЛИЧ” АСАРЛАРИДА ХОНЛИКЛАР ДАВРИНИНГ БАДИЙ ТАЛҚИНИ</i>	820
<i>Turakulova Okila Amirkulovna. TA'LIM JARAYONIDA YOSHLARIMIZNING MILLIY O'ZLIGINI ANGLASHIDA BADIY ASARLARNING TUTGAN O'RNI</i>	825
<i>To'uchiyeva Mahfuza Umarkulovna. TA'LIM TIZIMIDA MANTIQUIY FIKRLASHDAN FOYDALINISH MASALASI: O'TMISH VA BUGUN</i>	830
<i>Oymatova Nilufar Mirjamolovna. JADID ADABIYOTINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: MAHMUDXO'JA BEHBUDIY IJODINI O'RGANISH TAJRIBASI</i>	839
<i>Musurmonkulova Oysuluv Yulbekovna. ADABIY ASARNING BADIY MAZMUNINI ANGLASH YO'LLARI</i>	844
<i>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi. MAKTAB TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH</i>	852
<i>Abdixoliqova Mastona Raxim qizi. XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARINI O'QITISHNING INNOVATION VA PSIXOPEDAGOGIK ASOSLARI</i>	857
<i>Abduraxmanova Ilmira Alimjonovna. O'QITUVCHINING “SEHRLI TAYOQCHASI”: FAOLLIKNI OSHIRUVCHI METODLAR TAHLILI</i>	862
<i>Abdusattorova Dilshodabegim. ERTAKLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA ILOVALARINING O'RNI</i>	865
<i>Adashaliyeva Nigora Shuhratjonovna. ADABIY TA'LIMDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING BADIY-ESTETIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH</i>	870
<i>Beknazarova Farida Matraxim qizi. 5–6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH</i>	875

